
Tumanimizda yana 873 ming tupdan ziyod ko'chat ekiladi

Rishton tumanida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida shu yilning kuz mavsumida 327,7 ming, kelgusi yil bahorida esa 546,1 ming, jami 873,8 ming tup manzarali, mevali daraxt va buta ko'chatlari hamda qalamchalarini ekiladi. Bu haqda tuman hokimining sanoatni rivojlantirish, kapital qurilish, kommunikatsiyalar va communal xo'jalik masalalari bo'yicha o'rinnbosari Nozimxo'ja Oripov ma'lum qildi. Umumfoydalanuvdagagi avtomobil yo'llari yoqalari, qishloq xo'jaligi yerlari, fermer xo'jaliklari ekin yer maydonlari chetlari, o'rta-maxsus, xalq ta'limi va muktabgacha ta'lim, sog'liqni saqlash yo'nalishidagi muassasalar, korxonalar va xizmat ko'rsatish sub'ektlari, tuman obodonlashtirish boshqarmasi tasarrufidagi maydonlar va mahalla fuqarolar yig'inlari hududlarida ekilishi belgilangan ko'chatlarni tanlashda ularning tabiiy iqlimga chidamliligi va uzoq umr ko'rishi inobatga olingan. Shuningdek, daraxt va buta ko'chatlari sug'orish tarmoqlariga yaqin manzillarda ekilishi ko'zda tutilgan.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-10-24 15:07:06